

IN'YEKSION NARKOTIK ISTE'MOL QILUVCHILAR ORASIDA OIV EPIDEMIYASI JARAYONINING NAMOYON BO'LISHI

Musabekova M.SH.¹ Atabekov N. S²

¹Respublika OIT'Sga qarshi kurashish markazi

*²O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik
osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi*

MANIFESTATION OF THE HIV EPIDEMIC AMONG INJECTION DRUG USERS

Musabekova M.Sh.¹, Atabekov N.S.²

¹Republican AIDS Prevention and Control Center

*²Sanitary-Epidemiological Welfare and Public Health Committee under Ministry of Health of the
Republic of Uzbekistan*

ПРОЯВЛЕНИЕ ЭПИДЕМИИ ВИЧ-ИНФЕКЦИИ СРЕДИ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ ИНЪЕКЦИОННЫХ НАРКОТИКОВ

Мусабекова М.Ш.¹, Атабеков Н. С.²

¹Республиканский центр по борьбе со СПИДом

*²Комитет санитарно-эпидемиологического благополучия и общественного здоровья при
Министерство здравоохранения Республики Узбекистан*

https://doi.org/10.62209/SPJ/vol6_Iss1/art12

Annotatsiya. Davlat dasturlarini amalga oshirish doirasida aholining OIV yuqtirish xavfi yuqori bo'lgan asosiy guruhlar o'rtasida ushbu infeksiyasining oldini olishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

OIV infeksiyasining jinsiy yo'l bilan yuqish hissasi ortishiga qaramay, epidemiya asosiy populyatsiyalarda to'plangan bo'lib, in'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilar orasida OIV sezilarli darajada tarqalganligicha qolmoqda.

Dozorli epidemiologik nazorat (DEN) ma'lumotlariga ko'ra xavf guruhlar o'rtasidagi vaziyatning tahlili OIV infeksiyasi tarqalishining kamayganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, in'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilar orasida ijobiy dinamikaga qaramay, ular OIV infeksiyasining yangi holatlarining salmoqli qismini tashkil etishda davom etmoqda.

2013-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda respublikada in'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilar orasida infeksiyani jinsiy yo'l bilan yuqtirishning ortish tendensiyasi kuzatildi.

Kalit so'zlar: In'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilar, OIV infeksiyasi, virusni yuqtirish yuqori xavfi, epidemik vaziyat.

Annotation. In the context of the implementation of state programs, priority attention is given to the prevention of HIV infection among key population groups at high risk of infection. Despite the growing share of sexual transmission of HIV, the epidemic is still concentrated, with a persistently high prevalence of infection among injection drug users (IDUs).

Analysis of the epidemiological situation according to the SES (sentencing and epidemiological surveillance) data indicates a decrease in the prevalence of HIV among high-risk groups. At the same time, despite the positive dynamics among IDUs, they continue to make up a significant share of new cases of HIV infection.

In the period from 2013 to 2023, there was a trend towards an increase in sexual transmission of infection among IDUs in the republic.

Keywords: injection drug users, HIV infection, high risk of infection, situation.

Аннотация. В рамках реализации государственных программ приоритетное внимание уделяется профилактике ВИЧ-инфекции среди ключевых групп населения, подверженных высокому риску заражения. Несмотря на растущую долю полового пути передачи ВИЧ, эпидемия по-прежнему носит концентрированный характер, с сохраняющейся высокой распространённостью инфекции среди потребителей инъекционных наркотиков (ПИН).

Анализ эпидемиологической ситуации по данным дозорно-эпидемиологического надзора, свидетельствует о снижении распространённости ВИЧ среди групп высокого риска. При этом, несмотря на позитивную динамику среди ПИН, они продолжают составлять значительную долю среди новых случаев выявления ВИЧ-инфекции.

В период с 2013 по 2023 гг. отмечалась тенденция роста полового пути передачи инфекции среди ПИН по республике.

Ключевые слова: Потребители инъекционных наркотиков, ВИЧ-инфекция, риск высокого заражения, ситуация.

Kirish. Dunyo aholisiga OIV infeksiyasi epidemiyasidan yetgan aziyatlar ko'lamini ortib bormoqda. BMTning OIV/OITS bo'yicha dasturi – UNAIDS tashkiloti 88 mln. nafar odamlar ushbu infeksiyani yuqtirib olganligi va ularning 42 mln. nafari mazkur kasallik oqibatida vafot etganligini qayd etgan. 2023-yilda 1,3 mln. nafar odamlarda OIV infeksiyasining yangi holatlari aniqlangan. UNAIDS tavsiyasiga ko'ra, OIV infeksiyasini oldini olish, tashxis qo'yish va davolash choralarini ishonchli ta'minlash uchun, aholining asosiy guruhlarini zarur xizmatlardan yetarli miqdorda hamda adolatli foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda OIV epidemiyasini bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar yoritilgan mamlakat va hukumat darajasida bir qator qarorlar qabul qilingan. Ushbu qarorlarda virusni yuqtirish xavfi yuqori bo'lgan aholining asosiy guruhlarini orasida OIV infeksiyasining profilaktikasi bo'yicha ishlarga alohida e'tibor berilgan (2,3,4). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallikka qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-14-sonli qarorida OIV infeksiyasini profilaktika qilish, unga tashxis qo'yish va davolash sifatini yanada oshirish, aholi orasida OIV infeksiyasini aniqlash bo'yicha tekshiruvlar qamrovini oshirish, bunda aholining asosiy guruhlariga tibbiy va ruhiy-ijtimoiy xizmatlarni sifatli yo'naltirish belgilab qo'yilgan.

Respublikamizda o'tkazilgan dozorli epidemiologik nazorat natijalariga ko'ra, OIV infeksiyasi epidemiyasi konsentrlangan bosqichda bo'lib, kasallik OIV yuqtirish xavfi yuqori guruhlar o'rtasida to'planganligicha qolmoqda.

Mamlakatimizda OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlar epidemiyaning ushbu bosqichda saqlanib qolishiga imkon berdi (5). In'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilar (INIQ) o'rtasida OIV infeksiyasi, zaxm va gepatit C tarqalishi kamaymoqda. Biroq, INIQLar orasida OIV bilan kasallanishning yangi holatlarini ro'yxatga olish davom etayotganini hisobga olsak, mamlakatdagi epidemik vaziyat dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu holatda OIV infeksiyasining INIQLar orasida tarqalishining haqiqiy sabablarini o'rganish masalasi kelib chiqadi. Amalga oshirilayotgan profilaktik dasturlarning samaradorligini qo'shimcha tasdiqlash zaruriyati yuzaga kelib, ularda INIQLar o'rtasida vaziyatni chuqur tahlil qilish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot maqsadi: Ushbu tadqiqotning maqsadi in'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilar orasida OIV infeksiyasini tarqalishiga ta'sir ko'rsatuvchi xulq-atvor omillarini dinamikada o'rganishdir.

Materiallar va usullar: Tadqiqot bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'tkazildi. Tadqiqot joriy epidemiologik nazorat, xulq-atvor va serologik tadqiqotlar (IBSS), rasmiy tibbiy statistika

ma'lumotlari, 2013-2023-yillarda OIV infeksiyasi yuqish xavfi yuqori bo'lgan aholining asosiy guruhlari o'rtasida profilaktika dasturlari natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar tahliliga asoslangan.

Aholi o'rtasida OIV infeksiyasi bo'yicha vaziyat to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi joriy epidemiologik nazorat ko'rsatkichlari OITSga qarshi kurashish xizmati faoliyati to'g'risidagi yillik axborot va tahliliy hisobotlardan olindi. Raqamlashtirish jarayoni jadallik bilan rivojlanib borayotganligini hisobga olgan holda, 2023-2024 yillarda "HIV-ES" (OIV infeksiyasini qayd etish) axborot dasturida joriy epidemiologik nazorat natijalari bo'yicha operativ va retrospektiv tahlillar o'tkazildi.

Xulq-atvor va serologik tadqiqotlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus ishlab chiqilgan "Epi-Info" dasturida o'tkazilgan DEN hisobotlaridan olingan. 2023-yilda DEN ma'lumotlar tahlili "E-IBBS" axborot dasturida o'tkazildi.

Natijalar: DEN ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilga qadar OIV infeksiyasining tarqalishi xavfli guruhlarda nisbatan yuqori bo'lgan, ammo u bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan (1-rasm). INIQLar orasida OIV infeksiyasi tarqalishining kamayganiga qaramay, OIV infeksiyasining yangi ro'yxatga olingan holatlari orasida OIV infeksiyali INIQLarning ulushi 2023-yilda 2,1% ni tashkil etdi (2013-yil - 8,0%). Shuningdek, OIV bilan rasmiy ro'yxatga olingan OIV infeksiyasi bilan yashovchi shaxslar orasida 2023-yilda INIQLar ulushi 8,3% ni tashkil etadi (2013-yil - 19,5%). Ushbu guruh orasida zaxm tarqalishining kamayishi (2013-yil - 3,0%, 2023-yil - 1,6%) ham kuzatilmoqda (1-rasm). OIV tarqalishining pasayishi bilan bog'liq vaziyatning tendensiyalarini batafsil tahlil qilish uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi.


Narkologik xizmatda INIQLarni dispanser ro'yxatiga olinishi va tegishli narkologik xizmat ko'rsatilishi to'g'risidagi ma'lumotlar respublikada INIQLarni aniqlash va ro'yxatga olish holatini baholashga yordam beradi. Ta'kidlash joizki, o'n yil ichida narkologiya markazlarida ro'yxatga olingan INIQLar soni ikki baravar (2013-yildagi 33,7 foizdan 2023-yilda 15,7 foizgacha) kamaygan bo'lib, bunda tanlanma hajmi atigi 9 foizga qisqarganligini inobatga olish zarur. OITSga qarshi kurashish markazlarida ro'yxatga olingan INIQLar soni

yuvasidan baholash o'tkazilganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, tadqiqotda ishtirok etgan INIQLarning 1,7%i OITSga qarshi kurashish markazlarida rasman ro'yxatga olingan bo'lib, ularning eng ko'pi Toshkent (4,9%), Surxondaryo (4,0%) va Samarqand (3,0%) viloyatlarida qayd etilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, so'nggi 12 oy davomida in'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilarning 1,8%i donor sifatida qon topshirgan. Ular orasida eng ko'p qon topshirgan INIQLar Toshkent (8,0%), Sirdaryo (3,6%) va Xorazm (2,0%) viloyatlarida kuzatilgan. So'nggi o'n yillik dinamikasi shuni ko'rsatadiki, INIQLar orasida donorlar soni deyarli o'zgarmagan. Mazkur holat INIQLar infeksiyaning manbai bo'lishi mumkinligi nuqtai nazaridan hushyorlikni oshirishni talab etadi.

Bundan tashqari, 2023-yilda tadqiqotda qatnashgan in'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilarning 75,1%i narkotik vositalarni so'nggi oyda in'yeksion qabul qilganini bildirishgan. Tadqiqot natijasiga ko'ra, oxirgi bir oyda vena ichiga narkotik moddalarni iste'mol qilish respublika bo'yicha 2013-yildagi 64,0 foizdan 2023-yilda 75,1 foizga oshgan.

Xavfli in'yeksiya amaliyotlaridan foydalanishning qisqarib borishi profilaktika dasturlari samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bunday amaliyotlarning kamayish tendensiyasiga qaramasdan, 2023-yilda tadqiqot ishtirokchilari orasida ba'zi xavfli xatti-harakatlar hali ham keng tarqalganligi qayd etildi. Shunday qilib, oxirgi oyda 23,2% INIQLar umumiy idishlardan foydalangan (2013-yilda - 17,0%) bo'lsa, 5,5%i boshqa shpritsdan dori vositalarini o'tkazgan (2013-yilda - 4,0%) va 4,1%i eritmaga qon qo'shgan (2013-yilda - 2,0%) (2-rasm).



1-rasm.

In'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilar orasida OIV, HCV va zaxmning tarqalishi (tendensiya, DEN ma'lumotlari)

In'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilar populyatsiyasida OIV yuqishiga olib keluvchi sharoitlardan biri giyohvand moddalarni guruhli iste'mol qilishdir. Narkotik moddalarni iste'mol qilishning turli tarmoqlarida ishtirok etish darajasiga ko'ra uchta guruh ko'rib chiqildi.


Narkotik moddalarni faqat yakka tartibda iste'mol qilgan INIQLar vakillaridan iborat birinchi guruh 2023-yilda 25,5% ni tashkil etdi. Oldingi tadqiqot bilan solishtirganda, narkotik moddalarni har doim individual ravishda in'yeksion iste'mol qiluvchilar ulushi 2,3 baravarga kamaygan (2013-yilda 60,0%).

Ikkinchi guruhga notanish INIQLar bilan narkotik moddalarni in'yeksion qabul qilmaganlar kiradi. Ushbu guruhdagi in'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilar faqat o'zlarining tanishlari bilan muloqot qilishlariga qaramay, ularning notanish yoki tasodifiy sheriklari bilan aloqa qilish imkoniyati istisno qilinmaydi. Tahlillar, tanishlari bilan narkotiklarni iste'mol qiluvchilar soni 2013-yildagi 65,0% dan 2023-yilda 69,1%

gacha dinamik ravishda o'sganini ko'rsatmoqda.

Oxirgi 12 oy davomida narkotiklarni har doim tasodifiy guruhda in'yeksion qabul qilgan, eng xavfli xulq-atvoriga ega bo'lgan uchinchi guruhga kiruvchi respondentlar 0,2%ni (2013-yilda 2,0%) tashkil etdi. Shu bilan birga, 7,9% INIQLarning ta'kidlashicha, ular ba'zan tasodifiy guruhda narkotik modda iste'mol qilgan va bu kelgusi yillarda epidemik vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini anglatadi.

Oxirgi marta qabul qilingan narkotikni iste'mol qilish xususiyatlari, bizga INIQLar orasida OIV infeksiyasi xavfi bilan bog'liq bo'lgan in'yeksiya ulushini baholashga imkon beradi. Bunda shpritsdan umumiy foydalanish eng xavfli amaliyotlardan biri bo'lib qolmoqda. Oxirgi o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, narkotikni qabul qilishning deyarli har o'ninchi in'yeksiyasi umumiy shprits yordamida amalga oshirilib, bu OIV tarqalishi uchun katta xavf tug'diradi.



2-rasm.

O'tgan oxirgi oy davomida INIQLarning narkotik moddalarni in'yeksiya qilish amaliyoti xavfi bo'yicha taqsimlanishi (dinamika, DEN ma'lumotlari)

In'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilarning jinsiy xulq-atvori butun populyatsiya orasida OIV yuqishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. INIQLarning 43,0 foizi (2023-y.) so'nggi olti oy ichida doimiy bo'lmagan jinsiy sheriklari borligini tan oldi. Ko'p sheriklarga ega bo'lish jinsiy aloqa paytida himoya vositalaridan tartibsiz foydalanish bilan og'irlashib boradi. INIQLarning faqat 54,6 foizi oxirgi jinsiy aloqa paytida individual himoya vositalaridan foydalanganligini ma'lum qilishgan (2013-y. 47%). Bu INIQLar, shuningdek, ularning narkotik iste'mol qilmaydigan jinsiy sheriklari orasida ham OIV infeksiyasining jinsiy aloqada yuqish xavfning yuqoriligidan dalolat beradi.

Dinamika shuni ko'rsatadiki, seroepidemiologik nazoratining besh bosqichi davomida INIQLar orasida xavfli in'yeksiya usullaridan foydalanish asta-sekin kamayib bormoqda, bu mamlakatda OIV tarqalishi darajasi bilan bevosita bog'liq. In'yeksiyaning xavfli usullarini qo'llash, narkotiklarni in'yeksion iste'mol qilish davomiyligi va OIV infeksiyasining yangi holatlari kabi ko'rsatkichlar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rish mumkin.

INIQLarni individual himoya vositalari bilan

ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar axborot-maslahat ishlari bilan birgalikda ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Masalan, bir martalik shpritslar va himoya vositalardan foydalanishning ortib borishi ushbu guruh orasida OIV, virusli gepatit C va zaxm tarqalishining kamayishi bilan bevosita bog'liq.

O'zbekistonda 2013-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda OIV infeksiyasini jinsiy yo'l bilan yuqishi ortishining barqaror tendensiyasi kuzatildi. Bu in'yeksiya va jinsiy xavflarni kamaytirishga qaratilgan kompleks profilaktika chora-tadbirlarini yanada takomillashtirib davom ettirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa:

OIV infeksiyasining jinsiy yo'l bilan yuqish nisbati ortishiga qaramay, epidemiya OIV infeksiyasi xavfi yuqori bo'lgan aholining muhim guruhlarida to'planishda davom etmoqda. OIV infeksiyasi in'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilar orasida sezilarli darajaga ega bo'lib, ushbu guruhlardan OIV infeksiyasining tarqalishi muhimligicha qolmoqda.

Aholining muhim guruhlarini o'rtasidagi vaziyatning tahlili OIV infeksiyasi tarqalishining

kamayishini ko'rsatadi. OIV infeksiyasi tarqalishining intensiv kamayishi bilan birga, OIV infeksiyasining yangi ro'yxatga olingan holatlari orasida INIQLar ulushi qayd etilgan.

2013-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda respublikada INIQLar o'rtasida infeksiyani jinsiy yo'l bilan yuqtirishning o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu in'yeksiya va jinsiy xavflarni

kamaytirishga qaratilgan kompleks profilaktika chora-tadbirlarini yanada takomillashtirib davom ettirish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2013-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3493-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-iyundagi "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish va shifoxona ichi infeksiyalarini profilaktika qilish bo'yicha qo'shimcha choralari to'g'risida"gi PQ-3800-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallikka qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-14-sonli Qarori.
5. BMTning OITS bo'yicha Tarafdorlik deklaratsiyasini amalga oshirilishi milliy hisoboti.
6. Asosiy populyatsiyalar uchun OIV, virusli gepatit va jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalarning oldini olish, tashxislash, davolash va parvarish qilish bo'yicha konsolidatsiyalangan ko'rsatmalar. 2022-y.
7. O'zbekiston Respublikasida in'yeksion narkotik iste'mol qiluvchilar orasida o'tkazilgan dozorli epidemiologik nazorat hisoboti.

